

**XALQ DEPUTATLARI
BERUNIY TUMAN
KENGASHINING
QARORI**



**XALÍQ DEPUTATLARÍ
BERUNIY RAYONLÍQ
KEÑESINIÑ
QARARÍ**

2022 - yil 19 - dekabr

VI-58-133-13-182-K/22

Beruniy tuman hokimligi

**Tumandagi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob'ektlari va ko'p kvartirali uy-joy fondini
2022-2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar
to'g'risida**

Tumandagi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob'ektlari va ko'p kvartirali uy-joy fondini 2022-2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari Q.Koshanovning hisobotini tinglab, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasi muvofiq Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashi

QARORQILADI:

1. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari Q.Koshanovning hisobotini ma'lumotuchunqabulqilinsin.

2. Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob'ektlari va ko'p kvartirali turar joy fondini 2022-2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni muvofiqlashtirish bo'yicha Beruniy tumani hududiy ishchi guruhi (Q.Koshanov)ga:

olis va borish qiyin bo'lgan hududlarda ko'mir va suyultirilgan gaz hamda kamida 15-20 kunga yetadigan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari zahirasini yaratish;

2022-2023-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati yuzasidan har oy yakuni bo'yicha yig'ilish o'tkazib, mas'ul korxonalar, tashkilotlar, xo'jalik birlashmalari hisobotlarini eshitib borish;

belgilangan parametrlarni bajarishga mas'ul bo'lgan tegishli organ rahbarlari belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarmagan yoki qoniqarsiz bajargan taqdirda ularga nisbatan belgilangan tartibda intizomiy choralar ko'rish yuzasidan takliflar kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman elektr tarmoqlari korxonasi boshlig'i, "Beruniytumangaz" Gaz ta'minoti bo'limi boshlig'i hamda "Qoraqalpoq suv ta'minoti" MChJ Beruniy tumani filiali boshlig'i bilan birgalikda tuman aholisini elektr energiyasi, ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan uzluksiz ta'minlash choralari ko'rsin.

4. Tuman hokimi o'rinbosarlariga:

har bir mahallalarda xalq bilan muloqot tarzida o'tkaziladigan uchrashuvlarda mazkur qaror bilan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik va uni talofatsiz o'tkazish bo'yicha belgilab berilgan parametrlarning bajarilishi yuzasidan aholiga hisobot berib borish tizimini yo'lga qo'yish;

olis va borish qiyin bo'lgan hududlardagi aholiga kamida 15-20 kunga yetadigan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari zahirasini yaratish;

kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va uni talofatsiz o'tkazish yuzasidan Xalq deputatlari tuman

Kengashiga hisobot berib borish hamda ijtimoiy tarmoqlarda reja asosida “Ochiq muloqot” hamda brifinglar o‘tkazib borish;

qishloq aholi punktlari, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’ektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022-2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha parametrlar va chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

5. Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashi deputatlari hududlardagi qishloq aholi punktlari, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’ektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini kuz-qish mavsumida uzluksiz ishlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan deputatlik nazoratini o‘rnatish choralari ko‘rsin.

6. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari (A.Urazova) va tuman “Xalq minbari” gazetasi (L.Xojaniyazova) bilan tumandagi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha ob’ektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2022-2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida yoritib borilishini ta‘minlasin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi K.Atajanov zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror tuman “Xalq minbari” gazetasida nashr qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



A.Saparbayev